

# "O'zkimyosanoat" AJ va Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti o'rtaida hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi

// 29 July 2025 yil

<https://pda.uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-fanlar-akademiyasi-mikrobiologiya-insti>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining Innovatsiya va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'limi vakillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti bilan hamkorlik masalalari yuzasidan bevosita uchrashuv o'tkazdilar.

Uchrashuv davomida institutning ilmiy-tadqiqot va laboratoriya salohiyati chuqr o'rganildi hamda uning amalga oshirayotgan ilmiy faoliyati bilan yaqindan tanishildi.



Uchrashuvning asosiy maqsadi – ikki tomonlama manfaatli hamkorlik yo’nalishlarini aniqlash va yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha rejalarini ishlab chiqishdan iborat. "O'zkimyosanoat" AJning innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish sohasidagi tajribasi hamda Mikrobiologiya institutining ilmiy salohiyati ushbu hamkorlikka qo'shimcha imkon beradi.

Tomonlar keljakda birgalikda amalga oshiriladigan loyihalar orqali sanoat va ilmiy sohalarda samarali natijalarga erishishga kelishib oldilar. Bu hamkorlik nafaqat ikki muassasaning rivojlanishiga, balki umumiy milliy iqtisodiyot va ilmiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.



"O'zkimyosanoat" AJ va Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti o'rtaсидаги бу hamkorlik, innovatsiyalar va ilm-fanni amaliy ishlab chiqarishga integratsiya qilish borasida yangi bosqichni ochmoqda.



**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**